

Qoidani bilish foydali

16 aprel kuni 2-Talabalar turar joyida tarbiyachi pedagog, psixolog Sagdullayeva Dilorom tashabbusi bilan "Yo'l - qoidasi, umr - foydasi" mavzusida talabalar bilan davra suhbat uyuşdırıldı. Davra suhbatini Toshkent shahar IIBB YHXB Matbuot xizmati inspektori leytenant Davletshin Nail Ravilyevich olib bordi. Yosh avlodni hayotini asrash, ularning sog'lom va baquvvat kishilar qilib yetishtirish muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yo'l-transport harakati xavfsizligi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar shu maqsadga qaratilgandir.

Haqiqatan ham butun oquv yili davomida yo'lkalar, chorraha-yu, burulishlar, talabalar bilan gavjum bo'ladi. Ular qachon va qaysi yo'ldan yurishlarini borayotgan avtomobilarga duch kelishadi, yo'l belgilarni, yonayotgan svetofor chiroqlarini uchratishadi. Ko'cha va chorrahalarini kesib o'tishda ular yo'l harakati qoidasini yaxshi bilmoglari va unga qat`iy rioya qilmoqlari zarurligi aytib o'tildi. Nail Ravilyevich talabalarni qiziqtirgan turli savollarga javob berdilar. Davra suhbatni juda qiziqarli tarzda bo'lib o'tdi. GTS fakulteti dekan o'rinosi Azimov Azam, GIM fakulteti kafedrasini o'qituvchisi Raxmonov B.M. va GIM, GTS, QSXET talabalari qatnashishdi.



Tarbiyachi pedagog, psixolog Sagdullayeva Dilorom axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov